

OLIY VA O‘RTA-MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI”
KAFEDRASI**

**QarshiDU “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası
o‘qituvchisi Nafasova Vaziraning**

**“Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lug‘atayn” asari
va uning tilshunoslikda tutgan o‘rni”
mavzuidagi**

REFERATI

Qarshi - 2013

“Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lugʻatayn” asari va uning tilshunoslikda tutgan oʻrni”

REJA:

1. A.Navoiy oʻzi haqida.
2. A.Navoiy soʻz haqida.
3. A.Navoiy tillarning kelib chiqishi haqida.
4. A.Navoiy 100ta feʼl haqida.
5. A.Navoiyning «Muhokamat-ul lugʻatayn» asarida ikki til – forsiy va turkiy tillar qiyosi.

Hazrati Alisher Navoiy ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak choʻqqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilda bunchalik “koʻp va xoʻb” (Bobur) yozmagan edi. U oʻzini “Xitodin to Xuroson”gacha yoyilgan turkiy “qavm”larning shoiri deb bildi. Ularni bir adabiy til oʻctiga birlashtirdi – “yakqalam” qildi. Alisher Navoiy barcha turkiy xalqlarning buyuk shoiridir.

Alisher Navoiy tilshunoslikka doir “Muhokamat-ul lugʻatayn” asarini 1499 yilda yozib tugatadi. Shoir «Muhokamat-ul lugʻatayn» asarining boshlanish qismida quyidagicha yozadi: «Soʻz ahli xirmonining boshloqchisi va soʻz qimmatbaho toshlari xazinasining poyloqchisi va nazm gulistonining sayroq bulbuli, yaʼni Navoiy deb taxalluslangan Alisher arz qiladiki, soʻz bir dur boʻlib, uning daryosi koʻngildir. Koʻngil shunday bir oʻrin boʻlib, unda mayda va yirik maʼnolar toʻplangandir. Bu shunga oʻxshaydiki, gavhar daryodan gʻavvos vositasida chiqariladi. Uning qiymati esa toshiga qarab maʼlum boʻladi. Soʻz duri ham koʻngildan soʻzga chechan kishi vositasi bilan nutq sharafiga erishadi, uning qiymati ham oʻzining darajasiga qarab shuhrat qozonadi va hamma yoqqa yoyiladi. Nechunki, gavhar qiymat yuzasidan juda koʻp darajalarga boʻlinadi, xatto bir diramdan yuz tumangacha desa boʻladi».

Alisher Navoiyning boshqa sohadagi singari tilshunoslik sohasidagi xizmati ham gʻoyat katta ahamiyat kasb etadi. Tishunoslikka doir fikrlari ulugʻ siymoning har bir asarida, jumladan, "Muhokamat ul-lugʻatayn" asarida yaqqol koʻzga tashlanadi. Tengi yoʻq soʻz ustasi Alisher Navoiy oʻzining lugʻatchilik va tilshunoslik sohasidagi yarim asrlik tajribasini “Muhokamat ul - lugʻatayn” asarida umumlashtiradi. Alisher Navoiyning ushbu asarida olgʻa surgan va tilshunoslik tarixi uchun qimmatli boʻlgan fikrlari quyidagilardan iborat:

1.Turli tillarning paydo boʻlishi va rivojlanishi haqida fikr bildiradi. Alisher Navoiy tillarning paydo boʻlish voqeasini Nuh paygʻambar va uning oʻgʻillariga bogʻlaydi. Bu haqda "Muhokamat ul-lugʻatayn"da shunday yozadi: "...turkiy, forsiy va hindiy asl tillarning manbai (kelib chiqishi)durki, Nuh paygʻambar... ning uch oʻgʻligakim, Yofas va Som va Xomdur etishur... Yofasniki, tavorix ahli Abut-turk bitirlar, Xito mulkiga yibordi va Somniki, Abul-furs bitirlar. Eron va Turon mamolikning vasatida voliy qildi va Xomniki, Abulhind debdurlar, Hindiston bilodiga uzatti. Va bu uch paygambarzoda avlod va atboi mazkur boʻlgʻon mamolikda yoyildilar va qalin boʻldilar".

Tillarning paydo bo'lishi haqida fikr yuritar ekan, u arab tilini mustasno qiladi. U arab tilini "kalomi ilohiydur", hamma tillardan go'zalroq va boyroqdir, - deydi. Chunki xudoning kalomi bo'lgan "Qur'on" va payg'ambar hadisi, avliyolar so'zi shu tilda yaratilgan. Shu asosda Navoiy arab tilini barcha tillardan yuqori qo'yadi.

A.Navoiy fikricha, til ijtimoiy hodisadir. Til insonni hayvondan ajratuvchi "gavhari sharif" dir:

So'zdurki, nishon berur o'likka jondin,

So'zdurki, berur xabar jonga jonondin,

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin.

Navoiy bu fikrlarini chuqurlashtira borib, so'zning ta'sir kuchi, uning katta ruhiy ozuqa va tarbiyaviy ahamiyatiga yuqori baho beradi. U o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida shunday mulohaza bildiradi: "So'z durrining ayirmasi bundan ham cheksiz va darajasi bundan ham nihoyatsizdir. Shundayki, yaxshi so'zdan o'lgan badanga toza ruh etadi, unga jon baxsh etadi, yomon so'zdan tirik tanga o'ldiruvchi zahar xosiyati paydo bo'ladi, kishini halok etishga olib boradi".

Til tafakkurning ifoda qurolidir. Kishining ko'ngli (fikri) daryodir, so'z esa - dur, so'zlovchi g'avvosdir. Dur xilma-xil bo'lgani singari, so'z ham har xil bo'ladi.

So'z so'zlashdan maqsad ma'no ifodalashdir. Binobarin, "ma'ni adosida alfoz tilga kelur va ul alfozdin ma'ni fahm bo'lur". U ma'noni birlamchi, shaklni ikkilamchi deb qaraydi va ma'noga so'zning joni deb baho beradi. Alisher Navoiy til va tafakkurni bir - biridan ajratmaydi, balki ularni uzviy birlikda oladi. O'zbek tilini fors - tojik tili bilan qiyoslab, uning fors tilidan qolishmasligini ko'rsatib, o'zbek tilida asarlar yozishga rag'batlantirdi. A.Navoiy ikki tilni chog'ishtirganda 100 fe'lni keltirib, ularni tahlil qiladi va o'zbek tilini xazina deb biladi, Masalan, fors-tojik tilida "giryakardan" birikmasi o'zbek tilida yig'lamoq, ingramoq, singramoq, yig'lamsinmoq, sixtamoq, o'kurmoq, inchkiramoq fe'llari bilan, "nushidan" so'zi o'zbek tilidaga ichmoq, sipqormoq, tamshimoq so'zlari bilan berilishini izohlaydi. Alisher Navoiy, o'zi aytganidek uning so'zlarining martabasi yuqoridan pastga tushmaydi. Undan so'nggi davrlarda yashagan ijodkorlar ham ajoyib namuna sifatida foydalandilar, uni o'z ustozlari deb bildilar. Jumdan, Munis shunday yozadi:

So'z ichra Navoiyki jahongir durur,

Munisga maoniy yo'lida pir durur.

A.Navoiy o'zi haqida va «Muhokamat-ul lug'atayn»ning yozilish sabablarini bayon qilar ekan, so'z ahlining xirmonining boshqochisi, nazm gulistonining sayroqi bulbuli, ya'ni Navoiy deb taxalluslangan Alisherni ochiqdan-ochiq aytadi.

O'tmish va bugun esa A.Navoiyning aslida shunday komil inson, buyuk shoir ekanligini tan olib, hozir ham o'zi haqida aytgan fikrlarni o'zgalar «nazm gulining bulbuli», «ona tilining

kurashchisi», «Navoiy-tilshunos» kalimalarini keltiradiki, bunday fikrlar yuqoridagi fikrlarimizni shubha ostiga olmaydi.

Ha, buyuk shoir o'zining buyukligini hammadan oldin bilgan, bu buyuklikdan mag'rurlangan, o'zga tillarga mehr va muhabbat bilan qaragan, eng muhimi o'z ona tilisining kamsitilayotganidan arz qilib, bu tilning nafis va boyligini ochiqdan-ochiq namoyish etgan tilshunos olim edi.

Darhaqiqat, A.Navoiy o'zi va o'zgalar to'g'risida so'zlaganda, ochiq haqiqatni va adolatni aytishdan tap tortmaydi.

U doimo turk nazmida alam chekkanligini, mamlakatni esa bu turk tili bilan «yak qalam» qilganligini e'tirof etadi.

SHuning uchun bo'lsa kerak, daqiq va faylasuf shoirimiz A. Oripov:

Temur tig'i Etmagan joyni

Qalam bilan oldi Alisher,

deb yozganida ming bora haqdir.

Ma'lumki A.Navoiy «Muhokamat-ul lug'atayn»ni 1499 yilning dekabrda yozib tugatgan. Bu asarida u turk eski o'zbek tili, fors-tojik tilini bir-biriga chog'ishtirish asosida turk tilining boy til ekanligini va bu tilda ham badiiy asarlar yaratish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini amalda asoslab bergan edi.

Buyuk shoir ona tilimizdagi so'zlar xususida fikr yuritib, so'zni durga, uning ma'nolarini esa, cheksiz va mavqei nihoyatda tengsiz ekanligini e'tirof etadi. Ya'ni «so'z durrining tafovuti mundin dog'i beg'oyatroqdur. Andog'ki, sharifidin o'lg'an badang'a ruhi pok etar, kasifidin hayotlig' tang'a zahri halok xosiyati zuhur etar».

Qit'a:

So'z gavhardurki, rutbasining

Sharhidadur ahli nutq ojiz.

Andinki erur xasis muxlik,

Ko'rguzguncha durur Masih mo'jiz.

Emdi kelduk so'z bayonig'a va kalom dostonig'a: muncha mutannavi shahr va quro va jibol va sahro va besha va daryo xalqikim, biva tanavvu va tag'ayyurini sharh etildiki, majmuida ma'ni adosida alfoz tilga kelur va ul alfozdin ma'ni fahm bo'lur».

A.Navoiy so'z haqida shunday yozadi: «So'z shunday gavhardirki, martabasini aniqlashdan nutq egalari ojizdirlar. Martabasi - yomon so'zning halok qiluvchanligidan tortib, yaxshi so'z bilan Isoning mo'jiza ko'rsatishigacha boradi. So'zning turlari shunchalik ko'pki, o'ylash va tasvirlab chiqish mumkin emas. Agar mubolag'a qilmasdan, yuzaki bayon qilinsa va qisqalik bilan yozib chiqilsa, yetmish ikki navga bo'linib, yetmish ikki xil xalqning so'ziga

aylanishida hech bir soʻz yoʻq, lekin mundin ham koʻpdir. U shundayki, yer yuzining yetti iqlimining har birida necha mamlakat bor, har bir mamlakatda necha shaharcha va kent bor, har dashtda necha xil sahnoshin xalq, har bir togʻning kamarlarida va yuqorisida, har bir daryoning orolida va qirgʻogʻida necha guruh odamlar bor. Ammo soʻz va gapdan maqsad insondir va u maʼni va nutqning egasidirki, shuning uchun, bizning soʻzimiz uning soʻzi ustida boradi» (175-bet).

A.Navoiy soʻz haqida soʻz yuritganda soʻzning qudratini, u inson uchun zarur qurol va manba ekanligini bayon etadi. Jumladan, shoir tili bilan aytadigan boʻlsak, u quyidagicha soʻzga izoh beradi:

Donau dur soʻzini afsona bil,
Soʻzni jahon bagʻrida durdona bil.

Yoki:

Soʻz qotigʻi el koʻngliga ozor aylar,
Yumshogʻi koʻngillarni giriftor aylar.

U soʻz haqida soʻzlaganda «Muhokamat-ul lugʻatayn»da quyidagicha fikr yuritadi: «emdi kelduk soʻz bayonigʻa va kalom dostonigʻa. Muncha mutanavvi shahr va quro va jibol va sahro va besha va daryo xalqikim, bitildi va tanavvi va tagʻayyurini sharh etildiki, majmuida maʼni adosida alfoz va ul alfozdin maʼni fahm boʻlur», yaʼni endi soʻzni bayon qilishga kirishaylik, yuqorida turliligi va bir-biridan ayirmasi aytilgan turli shahar, qishloq, togʻ, oʻrmon va daryo xalqlarining hammasida maʼnini soʻzlar uchun ifoda qilinadi va bu soʻzlardan maʼni anglashiladi. (175-bet).

Soʻz haqida soʻzlarimizni xulosalab, shuni aytish oʻrinliki, A.Navoiy koʻngullarning mahzanini qulfi til va ul mahzanning kalidin soʻz bil, deydi. Quyida A.Navoiyning soʻz va til haqidagi fikrlarini keltiramiz:

«Soʻzki maʼnosida ishq oʻti nishoni boʻlmagʻay,
Bir taharruksiz badan onglaki, joni boʻlmagʻay».

«Tilga ixtiyorsiz, elga eʼtiborsiz».

«Tilga iqtidorligʻ - hakimi hiradmand,

Soʻzga ixtiyorsiz laimi najand».

«Soʻzning asnofi bagʻoyat choʻqtur».

«Chin soʻz moʻtabar, yaxshi soʻz muxtasar».

«Ul kim dimogʻida xabt-soʻzida yoʻq rabt».

... «Befoyda soʻzni koʻp aytna, foydali soʻzni eshiturdan qaytna».

«Tilingni ixtiyoringda asragʻil, soʻzungni ehtiyot bila degil».

«So'zni ko'nglungda pishqormaguncha tilga kelturma, harnakim, ko'nglungda bo'lsa tilga surma» va b.

A.Navoiy tillarning kelib chiqishi xususida fikr yuritarkan, quyidagicha yozadi: «..uch nav til borki, bular hamma tillarning aslidir. Bu tillarning shoxobchalari benihoyat ko'pdir. Bu tillarning o'z so'zlashuvchilari bordir. Ammo turki, forsiy va hind tillari asl tillarning chiqish o'rnidirki, Nuh payg'ambarning uch o'g'li: Yofas, Som va Homga borib taqaladi. Bu qisqa so'zning tafsili shuki, Nuh to'fon fitnasidin xalos topganda va uning halokatidan qutulganda, dunyo yuzida bashar jinsidan asar va inson navidin namuna qolmagan edi. Bu vaqtda Yofasni-uni tarixchilar Abut- turk deb yozgan-Xitoy malakatiga yubordi. Somni-uni Abul-furs deb yozganlar- Eron va Turon mamlakatlarining o'rtasiga hokim qildi. Homni esa-uni Abul-hind deb ataganlar-Hindistonga uzatdi. Bu uch payg'ambarzodalarning avlodlari va o'zlariga qarashlilari mazkur mamlakatlarda yoyiladilar, u yerlarda zichlanib ketadilar.

Abut-turk deb atalgan Yofas, tarixchilarning bir og'izdan aytishicha, payg'ambarlik toji bilan ustun va elchilik bilan qardoshlaridan imtiyozli bo'ldi. Uch til: turki, forsi va hindi tillari bu uchchovining avlod va qaramlari o'rtasida tarqaldi». 176-b.

Shoir tillarning kelib chiqishi haqida fikr yuritar ekan, diniy fikrlardan qochib qutulolmaydi. O'zidan oldin o'tgan tarixchilarning fikriga asoslanadi. Navoiyning fikricha, arab tili bundan mustasnodir. U «kalomi ilohiydir», hamma tillardan go'zalroq va boyroqdir, chunki Xudoning kalomi bo'lgan Qur'on va payg'ambar hadisi so'zlari shu tilda yaratilgan deydi.

Navoiyning tushunishicha, til ijtimoiy hodisadir. Til insonni hayvondan ajratuvchi «gavhari sharifdir». U tilni qotib qolgan, o'zgarmas narsa deb hisoblamaydi. Til o'sadi, rivojlanadi, u har doim jamiyatning talab va ehtiyojiga muvofiq ravishda bir-biri bilan aloqada bo'ladi, chatishadi, deb yozadi.

O'zbek adabiy tilining asoschisi A.Navoiy ilmiy asarlarni arab tilida va badiiy asarlarni fors-tojik tilida yozish an'anasiga qarshi chiqib, o'zbek tilining ham badiiy, ilmiy asarlar yaratish uchun boy imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Fors- tojik tilida qaysi tur, qaysi janr va uslubda asarlar yaratilgan bo'lsa, A.Navoiy shularning hammasida o'zbek tilida original asarlar yaratdi. A.Navoiy o'z asarlarida o'zbek tilining leksik boyliklaridan, sinonimlar va oomonimlardan, xalq maqol va matallaridan, frazeologik, ideomatik birikmalaridan, keng foydalandi. Natijada, leksik va grammatik normalarni ma'lum qolipga, sistemaga solishga intildi.

Ona tilining boyligidan ijodiy foydalangan. A.Navoiy o'zbek tilining leksik jihatdan fors-tojik tilidan qolishmasligini ham ta'kidlaydi.

A.Navoiy o'zbek tilining boy sinonimlaridan o'z asarlarida ustalik bilan foydalangan. O'zbek tilida turli ma'no nozikliklarini ifodalovchi sinonimik fe'llardan 100tasii «Muhokamat-ul lug'atayn»da ham eslatib o'tadi: «Bu 100 lafzdurki, g'arib maqosid tayin qilibdurlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yasamaydurlar».

A.Navoiy o'zi keltirgan 100 fe'lining har biri o'zbek tilida o'z sinonimlariga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Masalan, biror bir suyuqlikni ichish harakatini ko'rsatuvchi ichmoq fe'li bor. Navoiy Bu fe'lining sipqarmoq, tomshimoq kabi sinonimlardan ham foydalangan:

Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o'zimdin boray,

Shart bukim, har necha tutsang labo-lab sipqaray.

Soqiy, chu ichib, menga tutar qush,

Tomshiy-tomshiy oni qilay no'sh.

A.Navoiy asarlarida «yig'lamoq» so'zining yig'lamsinmoq, bo'xsamoq, ingramoq, singramoq, siqtamoq, o'kirmak, inichkirmak, hoy-hoy yig'lamoq kabi sinonimlarini samarali qo'llagan.

Istasam dabir gulidin ishqingni pinhon aylamak,

Kechalar gah ingramakdur odatim, gah singramak.

Ul oyki, kula-kula hirog'latti meni

Yig'latti meni demaki, siqtatti meni.

A.Navoiy yuqoridagi misollarni keltirar ekan, ulardagi sinonimlarning poetik ustunligini, stilistik bo'yoqdorligini va poeziyadagi rolini ko'rsatadi. Bu bilan tildagi sinonimlarning rolini yaxshi tushunib yetganligini ko'rstadi.

Ma'lumki, «Muhokamat-ul lug'atayn» ning hamma nashrlarida shoir tomonidan 100 ta deb keltirilgan fe'llarning soni 98 yoki 99 tadir, - deb yozadi tilshunos S.Umarov. U kishi yozadi: «Biz ushbu masalaga aniqlik kiritish uchun «Muhokamat-ul lug'atayn»ning to'rt nusxa-uch nashr va 1 qo'lyozmasini o'rganib chiqdik. Qo'lyozma Turkiyadagi Fotih kutubxonasida saqlanadi. Uch nashrdan birinchisini 1640 yilda O.Uusmonov va P.SHamsiev, ikkinchisini shoirning 15 tomlik asarlar to'plami uchun P.SHamsiev, uchinchisini 1968 yilda, Ogoh Sirri Levind nashrga tayyorladi. Chog'ishtirma chog'ida 100-fe'l chimdilamak ekanligini Ogoh Sirri Levind aniqlagani ma'lum bo'ldi. Bu so'z shoirning Turkiyadagi fotih kutubxonasidagi qo'lyozmasi tarkibidan topiladi. Bundan tashqari, chog'ishtirish vaqtida fe'llarning orfografiyasiga ayrim aniqlik kiritish imkoni tug'ildi. Chunonchi, ikkinchi nashrdagi yigirmak fe'lli qo'lyozma va boshqa nashrlarda bikirmak ekanligi aniqlandi. Qiynamoq fe'li Turkiyada nashr qilingan asarda qimsamoq, bo'shmoq fe'li bo'smoq, qiqzanmoq so'zi qizg'anmoq shaklida berilgan.

100 ta fe'l ichidagi 1, 3, 5, 8, 13, 15, 38, 35, 36, 47, 48, 50, 51, 55, 61, 62, 63, 73, 64, 76, 77, 78, 79, 80, 81, 83, 85, 88, 90, 91, 94, 95, 96 raqamlaridagi fe'l ma'nolari Fitrat tomonidan qayd etilgan. Qolgan so'zlarning ma'nolarini aniqlashda «O'zbek xalq shevalari lug'ati», «O'zbek tilining izohli lug'ati»dan foydalandik. Bunga qaramasdan, afsuski, ayrim fe'llarning ma'nolarini aniqlash imkoni bo'lmadi.

Navoiy yozadi: «Bu 100ta so'zni ingichka maqsadlarni ifodalash uchun belgilabdirilarki, ularning hech biri uchun sart tilida so'z yasamabdur. Lekin ularning hech biri uchun kishining ehtiyoji tushmaydi deb bo'lmaydi, so'zlashish chog'ida kishi unga muhtoj bo'ladi. Bularning

ko'pi shunday so'zlarki, forschada uning mazmunini aslo anglatib bo'lmaydi. Ba'zisini anglatlsa bo'ladi, lekin bir so'zni tushuntirish uchun bir necha so'zni tizmaguncha bo'lmaydi. Bu ham arabcha so'zlar yordami bilan bo'ladi. Turk tilida bu xil so'zlar ko'p bo'ladi. Masalan, yuqorida mazkur bo'lgan so'zdan bir nechtasini ustida isbot qilaylik, toki da'vogar qarshilik ko'rsatganda uyalib qolmasin, shuning bilan boshqalarini ham solishtirsin. Shoirlarning kattalaridan ba'zilari «may» ta'rifida mubolag'a qilibdurlar bu narsa odat bo'lib ketganki, may ichmoq qoidalari to'g'risida ko'p so'zlar yurgizib, nihoyatsiz xushta'blik ko'rsatadilar».

SHoir 100 fe'l haqida so'z yuritar ekan, fors tilida bu so'zlar o'rniga u tilda so'zlar yaratilmaganligini, turk tilining bu sohada boyligini yana bir karra isbotlaydi.

Quyida tilshunos E.Umarov ma'nolarini aniqlagan 100ta fe'lni nomma-nom ism keltirishni lozim topdik: Quvarmoq – turlicha tusda ko'rimoq, quruqshamaq, usharmak-itarmak, ilgari tomon otmoq, kekkaymoq, o'daymak-to'g'rilanmoq, to'g'ri kelmak, chekirmak, xumsaymoq – achchig'idan qovoq solib o'tirmoq, umunmoq – umidvor bo'lmoq, usanmoq, igirmak, egarmak-ergashmoq, o'xranmoq, toriqmoq – achchig'lanmoq, aldamoq – yo'ldan urmoq, ag'darmoq-allamoq, ishanmak – inochmoq, inglanmak, aylanmoq – sayr qilmoq, orikmak – xafa bo'lmoq, igranmoq, ovunmoq - o'zini tinchitmoq, istamoq – zo'r berib undamoq, qiynamoq – ozor bermoq, qo'zg'almoq-o'rnidan siljimoq, sovrilmoq-shamolda tozalanmoq, chayqalmoq – tebranmoq, evdashmoq, kimsamoq – qimirlamoq, qizg'anmoq – rashk qilmoq, nikamak, siylanmoq – hurmat qilinmoq, tanlamoq – saralamoq, qimirdamoq – qimirlamoq, sirpmak, sirmamak – qopmoq, kanorgamak – otini aravaga qo'shmoq, sig'riqmoq – sig'inmoq-sajda qilmoq, qilmoq, yalinmoq-yolvormoq, munglamoq, indamak – sukut saqlamoq, tergamak-tekshirmoq, tevramak- keng'aymoq, shig'aldamoq, singramak-sekin yig'lamoq, yashqamoq-yashirmoq, ko'zning yoshdan to'lmog'i, isqarmoq, ko'ngramak-g'azablanib, o'zicha gapirmoq, suxranmoq-o'zicha gapirmoq, siypamoq-silamoq, qoralamoq-orqasidan bormoq, surkanmoq-surkalmoq, kuymanmak-bahona qilish, ingranmak-fig'on qilmoq, to'shalmak, mung'aymoq-ma'yuslanmoq, tanchqamoq, tanchqolmoq, ko'ruksamak-ko'rmakni istash, tushurg'anmoq-qiynalmoq, g'umsamoq-azob chekmoq, kirkinmak-sovuqdan yengil yo qo'rquvdan sekingina titramak, sukadamak, bo'smuq, burmak-yo'nalishini o'zgartirmoq, turmak-yashamoq, tomshimoq-oz-oz ichmoq, qahamoq, sipqormoq-oxirigacha ichmoq, chicharkamak, murkanmak-quymoq, o'rtanmak-qiynalmoq, sig'g'urmoq, gurpaklashmak-engillashmoq, cho'prutmoq-yopishtirmoq, yirg'amoq-kayf-safo g'ilmoq, bichimoq, kingzanmoq, singurmak, kundalakmak-yumaloq qilmoq, ko'mo'rmak-tish bilan uzib Emak, bikirmak-bekitmak, ko'ngurdamak-qarimoq, bo'shashmoq, kinarkamak-otini aravaga qo'shmoq, kezarmak, do'ptulmoq-tepilmak, chidamoq-bardosh bermoq, tuzmak-sabr qilmoq, qazg'anmoq-foydalanmoq, qichig'lamoq, gangiramak, yodamoq-kuchsiz,holsiz qolmoq, qadamoq-iztirobdan qutulg'ondan dam olmoq, chiqanmoq-oyoq osti bo'lmoq, ko'ndirmak-rozi qilmoq, so'ndirmak, so'qlatmoq, chimdilamak-tirnog'i bilan chimchilamoq.

A.Navoiy yuqoridagi misollarni keltirar ekan, ulardagi sinonim va omonimlarning poetik ustunligi, uslubiy bo'yoqdorligini va nazmdagi rolini ko'rsatadi. Bu esa A.Navoiyning tildagi sinonim va omonimlarning rolini yaxshi tushunib yetganligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiyning morfologik qarashi ham uning «Muhokamat ul lugʻatayn» asarida qisman aks etgan. Alisher Navoiy turk (oʻzbek) tilining shuhratini olamga yoyish bilan birga, umuman, tilshunoslikning eng muhim masalasiga nisbatan oʻz fikrini ham aytib oʻtgan, oʻz munosabatini bildirgan.

Alisher Navoiyning morfologik qarashi uning quyidagi fikrida, talqinida oʻz ifodasini topgan:

a) soʻzni uch turkumga ajratadi: feʼl, ism va harakat (yordamchi). Bunda Navoiyning feʼlga alohida eʼtibor qaratgani ancha muhim;

b) feʼlning birgalik nisbatdagi shakliga alohida eʼtibor beradi (orttirma nisbat yasovchi -t qoʻshimchasiga diqqat qiladi);

v) mazmuniy sintaksis boʻyicha ilk maʼlumot bergan.

Koʻrinadiki, Alisher Navoiy oʻz davrida tilshunoslikning boshqa sathiga toʻxtalish bilan birga, morfologik sathga oid oʻz talqinini beradi. Oʻzbek tili morfologiyasiga doir oʻz qarashini bayon qiladi.

A.Navoiy bu asari bilan «fors-tojik tiligina boy va nafisdir, oʻzbek tili qashshoq, qoʻpoldir» degan gʻayriilmiy anʼanalarni uzil-kesil tor-mor keltirdi, oʻzbek yozuvchilarini oʻz ona tilisida ijod qilishga ragʻbatlantirish, oʻzbek tilini fors-tojik tili bilan chogʻishtirishni, bu tilning boyligi va goʻzalligini, uning oʻziga xos leksik-morfologik xususiyatlarini soʻz yasash, fonetik tartibi, uslubiyati va boshqa jihatlarini solishtirib, oʻzbek tilining fors tilidan qolishmasligi, qolaversa, undan qolishmasligini isbot etdi hamda oʻzbek tili soʻz boyligi va boshqa ayrim xususiyatlari bilan fors-tojik tilidan bir qator ustunliklarga egaligini koʻrsatib berdi.

A.Navoiy tilning lugʻat boyligiga alohida eʼtibor beradi. U ikki tilni bir-biriga chogʻishtirar ekan, fors-tojik tilida ekvivalenti boʻlmagan koʻpgina oʻzbekcha soʻzlarga eʼtibor qildi.

Shoir, ayniqsa, ot turkumi yuzasidan fors-tojik tilida ogʻo ham, ini ham birodar soʻzi bilan, egachi soʻzi ham, singil soʻzi ham xohar soʻzi bilan aytiladi, otning egari zin deyilsa, jibilgir, toʻqum; torligʻ, toʻqa, qushqun kabi asboblari turkiy soʻzlar bilan aytilishini taʼkidlaydi.

A.Navoiy soʻz yasalishi masalalari haqida ham toʻxtalib, oʻzbek tilining yangi soʻz yasash imkoniyatlari va usullarini misollar asosida isbotlaydi, izohlaydi: oʻzbek tilida shin sh harfi chopishmoq, topishmoq, -chi vositasida koʻrchi, suvchi, qushchi kabi soʻzlar vujudga keladi deydi va shu kabilar.

Olimning asarlarida -chi qoʻshimchasi vazifasida -vul qoʻshimchasining ham ishlatilishini qayd etadi: yakkavul-yoʻl boshlovchi, kiptavul-qoʻrgʻon qorovuli, yasavul-bakavul, chingovul kabilar. Hozirgi oʻzbek tilida qoʻllanilmaydigan va Navoiy davrida normal hol hisoblangan harakat nomi yasovchi -l qoʻshimchasi ham mavjuddir: qabol, yasol, tutkal kabi.

A.Navoiy turkiy va forsiy tillarni qiyoslar ekan, juda koʻp turli soha soʻzlarini bittama-bitta yigʻadi, tahlil qiladi. Hayotning turli sohalarga tegishli istilohlarini oʻz asarlariga singdirdi. Quyidagi turkiy soʻzlarni misol sifatda keltirmoqchimiz:

Oziq-ovqat nomlari: qaymoq, qatlama, bulamig, qurut, manti, quymoq, o'rqamach, qimiz, suzma, bo'za, tatmach, umach, kumach va b.

Chorvachilikka doir nomlar: to'bichak, arg'umak, yaka, yabu, tatu, toy, g'unon, dunon, to'lan, chirg'a, lang'a, jibildir, xana, tuqum, chilvir.

Kiyim-bosh nomlari: dastor, qalpoq, navruzi, tuppi, shirdoq, jarak, dakla, qur, terlik.

Ov hayvonlari nomlari: kiyik, to'ng'uz, xuna, qilchaqchi, suykun, bug'u, maral, ohu, gavazin, huk, guraz kabilar.

Yoki ushbu qiyosga e'tibor bering.

Turk tilida

Sart tilida

Qarindosh urug'chilik terminlari qiyosi:

Ulug'ini og'a, kichigini «ini» derlar birodar

Ulug' qiz qardoshini «egachi»

Kichigini «singil»

hohar

Otaning og'a-inisini «opag'a» alar hech qaysig'a ot

Ona qarindoshini «tog'oyi» qo'ymabdur

«ko'kaltash» turkcha til bila

atka, enaga aytur.

Hayvon, qush nomlari.

Kiyik erkagini «xo'na» ohu

Urg'ochisini «qilchoqchi» der gavazin

Suyqunning erkagini «bug'u»

Urg'ochisini «maral»

Elbasun-o'rdakning bir turi sartlar uni bilmaydi

Turklar o'rdakning erkagini sartlar ikkalasini ham

«suna»,urg'ochisini «burchin» «murg'obi» derlar.

Turkiy alfozda: kurka, erka,

Suqtur,chaqirqavot,temirqanot,

Oldaldag'a, alapo'ka,bonchol kabi sartlar barisin

Nomlar bilan o'rdakning turla- murg'obi derlar.

rini ayturlar.

Ot nomlari:

Tubichoq, arg'umoq, yaka, yobu

barisin turkcha ay-

Tatu	turlar
Toy, g'unon, do'nan, go'lan,	bilimdonlari turk-
CHirg'a,lang'a yoshiga qarab	cha aytur, ko'plari
Bilmaydur.	

Kiyim-kechak nomlari.

Dastor, qalpoq: navro'ziy,to'ppi turkcha ayturlar.

Shirdoq, dakla, yalak, yog'lig',terlik

Taom nomlari

Orqa,oshuqlig',yonso'ngak turkcha ayturlar

qoburg'alik, qatlama, bo'g'izlag'u

qaymog', qurut, ulabi

qimiz,suzma va b.

Ko'rinadiki, A.Navoiy o'zbek tilining leksik imkoniyatldari fors tilidan qolishmasligini yuqoridagi misollar bilan ochiq-oydin isbotlagan. Buning uchun u turkiy xalqlarning mahalliy sheva xususiyatlarini, har bir so'z anglatgan ma'nolarni chuqur bilgan va o'rgangandir.

A.Navoiy turkiy va sart tillaridagi so'z yasaliishi sohasida quyidagilarni misol sifatida keltiradi:

-sh- turk tilida harakatning bir necha kishi tomonidan bajarilishini bildiradi: chopishmoq, topishmoq, quchishmoq, o'pishmak;

-t- turk tilida ortirma nisbat yasaydi: yugurt, yashurt, qildurt, chiqart;

-chi qo'shimchasi mansab nomlarini yasaydi: qurchi, suvchi, xazinachi, yurtchi, tamg'achi, jebachi, yo'rg'achi, holvachi, qo'ychi, quvchi, kiyikchi, turnachi.

-vul esa: qiravul, yasavul, chingavul, bakavul, latavul , suzavul kabi.

-l qaqol, yasol, qabol, tumqol,tusgol, sevog'ol kabi.

Gumon va nisbat etish qo'shimchasi.

-dek: borg'udek, yorg'udek, kelgudek, bilgudek, aytqudek, urg'udek, surg'udek.

-ch fe'lda harakat turii ko'rsatadi: aytgach, barg'ach, topg'ach, satqach.

-r so'zlarning oxiriga qo'shilib, mubolag'a va harakat bildiradi: bilako'r, qilako'r, ketako'r, Etako'r.

Sifatlar shaklining yasaliishi haqida A.Navoiy o'zi «Muhokamat-ul lug'atayn»da quyidagicha yozadi: «Va yana bir rang yo bir sifatning shumuli holig'a mubolag'a uchun aning avvalinda, avval harfiga bir «p» yo «mim» izofa qilib, ul shayg'a zoid qilurlar; «p» misoli: op-oq, qap-qars, qip-qizil, sap-sariq, yup-yumaloq, yap-yassi, op-ochiq, chup-chuqur, bu nav hili ham topilur, «mim» misoli: ko'm-ko'k va yam-yashil, bo'm-bo'z va b.»

Hozirgi o'zbek tilida esa kap-katta, tap-tayyor, dum-dumaloq, kuppa-kunduz, chippa-chin, up-uzun, jim-jimaloq kabilar.

Xulosa sifatida, A.Navoiyning turk va sart tillarining leksik-morfologik, fonetik imkoniyatlari xususidagi fikrlarini muqoyasa qilib shuni aytish zarurki, shoir bu o'rinda ham o'z ona tilisining fidoyisi va jonkuyar tilshunosi sifatida ona tilimizning imkoniyatlari: so'z boyligi, morfologik vositalarning ko'pligi, fonetik, uslubiy bo'yoqdorligini namoyish etadi.

Asosiy adabiyotlar:

1.A.Navoiy. Tanlangan asarlar. III tom. «Muhokamat-ul lug'atayn». O'zbekiston Davlat nashriyoti. T. 1948 y. 171-194 betlar.

2.Tursunov U. O'rinboev B. «A.Navoiy va o'zbek adabiy tili tarixi» Samarqand. 3-29 b.

3.Reshetov V. Shoabdurahmonov Sh. «O'zbek dialektologiyasi» T.1962. 120-b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1.Belin M. A.Navoiyning biografiyasi. T. 1961 y. 222-b.

2.Mallaev N.M. «O'zbek adabiyoti tarixi». T.1963 y. 527-635-b.

3.Tursunov U. O'rinboev B. «O'zbek adabiy tili tarixi». T.1982.

4.Tursunov U. va b. «O'zbek adabiy tili tarixi». T. 1995.

5.Ne'matov H. «O'zbek tilining tarixiy fonetikasi». T. 1992.